



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




No8(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 140 sahifa,
12-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

The Role of English Collocations, Idiomatic Expressions, and Phraseological Units in Developing Communicative Competence in Higher Education	10
<i>Alimov Jamshid Ravshanovich</i>	
Milliy xoslangan lisoniy birliklarni teglash tamoyillari	16
<i>Yorkulov Zafarjon Bakirovich</i>	
Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunishning shaxs kognitiv rivojlanishiga ta'sirining psixologik xususiyatlari	20
<i>Vaydulla Madinabonu Muxtasam qizi</i>	
O'qituvchilar darslarni qanday qiziqarli tashkil etishlari mumkin?	26
<i>Dilnura Rustamovna Xamrayeva</i>	
Tarbiya texnologiyasi – talabalarda ilmiy va sinergetik dunyoqarashni shakllantirish omili sifatida	33
<i>Mamadaliyev Kamolidin Rahmatullayevich</i>	
Maktab direktor maslahatchilarida strategik boshqaruv tafakkurini rivojlantirishning psixologik omillari	40
<i>Rahmatova Nasiba Sobirovna</i>	
Umumta'lim maktablarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini sinfdan tashqari faoliyat orqali takomillashtirishning pedagogik-metodik tizimi	46
<i>Urinbayeva Dilfuza Abdumannobovna</i>	
Integrativ ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish	50
<i>Xoldavlatova Gavhar Normaxmatovna</i>	
Klaster asosida TVET tizimida pedagogik innovatsiyalar	55
<i>Sobir Azizov</i>	
Muammoli ta'lim texnologiyasi orqali talabalarining kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish: "muammo" divergent–konvergent o'quv sikli	57
<i>Djumabayev G'ulomjon Xalillayevich, Yusupov Muxtorbek Roximovich</i>	
Oliy ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya darslarida regbi elementlarini o'rgatishning tashkiliy-metodik asoslar	62
<i>E. E. Jumayev</i>	
Autentik materiallar asosida bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining til ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasining eksperimental samaradorligi	65
<i>Jumayeva Gulxan Amrullayevna</i>	
Aleksandr Nil pedagogik ta'limotida shaxs erkinligini rivojlantirish mexanizmlari: ingliz filologiyasi talabalari misolida	71
<i>Atamirzayev Bahrom Bahodir o'g'li</i>	
TPACK modeli asosida ingliz tilida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning adaptiv metodik tizimi	75
<i>Omonova Maftuna Shermatovna</i>	
Multimodal vizual tayanchlar va flashcard asosidagi topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilidagi og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	82
<i>Sevara Alimurodova, Ayubova Saida</i>	
Raqamlashtirish jarayonida elektron ta'lim resurslarini yaratishning metodik asoslarini takomillashtirish	88
<i>Nurmaxanov Kayrat Erpayizovich</i>	
Modulli ta'lim texnologiyalari orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishning pedagogik asoslari	95
<i>Poyonova Fazilat Olimovna</i>	
Individual ta'lim sharoitida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash samaradorligini pedagogik tajriba-sinov va matematik-statistik tahlil asosida baholash	100
<i>Gulbaxor Abdullayevna Gaynazarova</i>	



Oliy ta'lim muassasalarida raqamli menejment tizimlarini joriy etish muammolari va ularni bartaraf etishning samarali yo'llari	106
Matnazarov Hurmatbek Egamberganovich	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini boshqarishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	110
Sodiqov Rafikjon Turobjon o'g'li	
Bo'lajak tarbiyachilarning liderlik-boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ...	114
To'xtayeva Dilrabo Nematovna	
Inklyuziv ta'lim: mohiyati, tamoyillari	119
Choriyeva Muxlisa Jumamurodovna	
The Role of Neuromuscular Dentistry in Dental Practice	123
Turayev Alimjan	
Orthodontics' Digital Transformation (Literature Review)	128
Khusanbaeva Jasmin Shavkatovna, Xazratov A. I.	
O'zbekiston SSRda ta'lim islohotlari davrida pedagogika bilim yurtlari faoliyatida o'qituvchilarni tayyorlash jarayonlari va amaliy muammolar	136
Mamatkulova Maxfuza Kozimovna	

OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA RAQAMLI MENEJMENT TIZIMLARINI JORIY ETISH MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISHNING SAMARALI YO'LLARI

Matnazarov Hurmatbek Egamberganovich

Alfraganus university nodavlat oliy ta'lim tashkiloti
monitoring va ichki nazorat bo'limi bosh mutaxassisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida raqamli menejment tizimlarini joriy etishning ahamiyati, ularning ta'lim jarayonini boshqarishdagi o'rni hamda boshqaruv samaradorligini oshirishdagi imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish orqali shaffoflikni ta'minlash, tezkor qarorlar qabul qilish va ta'lim sifatini oshirish imkoniyatlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: raqamli menejment, oliy ta'lim muassasalari, boshqaruv samaradorligi, raqamlashtirish, axborot tizimlari, ta'lim jarayonini boshqarish, elektron boshqaruv, raqamli transformatsiya, monitoring va tahlil, ta'lim sifati.

Abstract: This article analyzes the significance of implementing digital management systems in higher education institutions, their role in managing the educational process, and their potential to enhance management efficiency. The study explores how the digitalization of administrative processes can ensure transparency, facilitate rapid and high-quality decision-making, and improve educational outcomes. Additionally, the article addresses the integration of existing information systems, the standardization of electronic document circulation, and the positive impact of digital systems on pedagogical processes.

Key words: digital management, higher education institutions, management efficiency, digitalization, information systems, educational process management, e-governance, digital transformation, monitoring and analysis, education quality.

Аннотация: В данной статье анализируется значимость внедрения систем цифрового менеджмента в высших учебных заведениях, их роль в управлении образовательным процессом и возможности повышения эффективности управления. В исследовании рассматривается, как цифровизация управленческих процессов обеспечивает прозрачность, способствует быстрому и качественному принятию решений и улучшению качества образования. Кроме того, в статье рассматриваются вопросы интеграции существующих информационных систем, стандартизации электронного документооборота и положительного влияния цифровых систем на педагогический процесс.

Ключевые слова: цифровой менеджмент, высшие учебные заведения, эффективность управления, цифровизация, информационные системы, управление образовательным процессом, электронное управление, цифровая трансформация, мониторинг и анализ, качество образования.

KIRISH

Hozirgi davrda globallashtirish jarayonlari hamda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi barcha sohalar qatori oliy ta'lim tizimiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, rejalashtirish, monitoring qilish va tahlil etishda zamonaviy raqamli menejment tizimlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv samaradorligini oshirish, inson omili bilan bog'liq xatolarni kamaytirish, shaffoflikni ta'minlash hamda tezkor va asosli qarorlar qabul qilishda raqamli menejment tizimlari muhim vosita hisoblanadi. Shu sababli bunday tizimlarni joriy etish bugungi kunda ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Raqamli menejment tizimlari oliy ta'lim muassasasining barcha boshqaruv jarayonlarini yagona axborot platformasi asosida tashkil etishga xizmat qiluvchi kompleks dasturiy yechimlar majmuasidir. Mazkur tizimlar orqali turli ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash hamda tahlil qilish imkoniyati yaratiladi. Ular, odatda,



o'quv jarayonini boshqarish, kadrlar bilan ishlash, moliyaviy nazorat, talabalar kontingentini yuritish, reyting va baholash tizimi, hujjatlar aylanishini tashkil etish hamda strategik rejalashtirish kabi muhim yo'nalishlarni qamrab oladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'lim tizimida raqamli menejment va raqamli transformatsiya jarayonlarini o'rganish masalalari ko'plab xorijiy olimlarning ilmiy izlanishlarida muhim o'rin egallaydi. Ushbu tadqiqotlarda ta'lim tizimini boshqarishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, raqamli platformalarni joriy etish hamda boshqaruv samaradorligini oshirish masalalari keng tahlil qilingan.

Ta'limni raqamlashtirish va raqamli universitet konsepsiyasi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan Tony Bates o'z ilmiy ishlarida oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqaruv samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, zamonaviy universitetlar raqamli ta'lim muhitini shakllantirish orqali boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Jamiyat va iqtisodiyotning raqamli rivojlanishi masalalarini o'rgangan Manuel Castells "axborot jamiyati" konsepsiyasini ilgari surib, raqamli texnologiyalar barcha ijtimoiy institutlar qatori ta'lim tizimining faoliyatiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatishini asoslab bergan ^[1]. Uning ta'kidlashicha, axborot texnologiyalarining rivojlanishi boshqaruv jarayonlarini yanada samarali tashkil etish imkoniyatini yaratadi. Strategik boshqaruv va raqobatbardoshlik nazariyasi bo'yicha mashhur tadqiqotchi Michael Porter tashkilotlar faoliyatida innovatsion texnologiyalarni joriy etish ularning raqobat ustunligini ta'minlashini ta'kidlaydi. Uning konsepsiyasiga ko'ra, zamonaviy tashkilotlar, jumladan, universitetlar ham raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish orqali o'z faoliyatining samaradorligini oshirishi mumkin.

Menejment nazariyasi asoschilaridan biri hisoblangan Peter Drucker esa tashkilotlarda samarali boshqaruvni ta'minlash uchun axborot va bilimlarni to'g'ri boshqarish muhim ekanligini qayd etadi ^[2]. Uning ilmiy qarashlarida tashkilot faoliyatini boshqarishda ma'lumotlar bazasi, axborot tizimlari va tahliliy mexanizmlarning ahamiyati alohida ta'kidlangan bo'lib, bu yondashuv zamonaviy raqamli menejment tizimlari uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Raqamli transformatsiya va ta'lim texnologiyalarini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan George Siemens tomonidan ilgari surilgan konnektivizm nazariyasi ham raqamli ta'lim muhitini rivojlantirishda muhim nazariy asoslardan biri hisoblanadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, bilimlar tarmoq muhitida shakllanadi va raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Oliy ta'lim muassasalarida raqamli menejment, raqamli transformatsiya va boshqaruv jarayonlarini modernizatsiya qilish masalalari so'nggi yillarda mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan keng o'rganilmoqda. Tadqiqotlarda ta'lim tizimini boshqarishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, elektron boshqaruv tizimlarini joriy etish hamda boshqaruv samaradorligini oshirish masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Jumladan, Sh. Shomurodov tadqiqotlarida oliy ta'lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari boshqaruv samaradorligini oshirish, shaffoflikni ta'minlash va tezkor qaror qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirishini ta'kidlaydi. M. Muxamedova esa oliy ta'lim muassasalarida akademik boshqaruvni raqamlashtirish orqali sifat monitoringi, strategik rejalashtirish va ta'lim jarayonini nazorat qilish tizimlarini takomillashtirish zarurligini asoslab bergan ^[3].

Shuningdek, O. Xurramov oliy ta'lim boshqaruvida innovatsion va raqamli menejment yondashuvlarini joriy etish rahbarlik faoliyatini modernizatsiya qilish hamda ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishini qayd etadi.

R. Islamova tadqiqotlarida elektron ta'lim tizimlari va LMS platformalarining ta'lim jarayonini boshqarish hamda nazorat qilishdagi ahamiyati yoritilgan.

Q. Alimova esa raqamli menejment texnologiyalari orqali ta'lim sifatini boshqarish tizimini takomillashtirish mumkinligini ta'kidlaydi ^[4].

Yuqoridagi tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xorijiy ilmiy adabiyotlarda oliy ta'lim tizimini raqamlashtirish, raqamli universitet modeli, innovatsion menejment va axborot texnologiyalaridan foydalanish masalalari keng o'rganilgan. Biroq oliy ta'lim muassasalarida raqamli menejment asosida rahbar xodimlar ijro intizomi va mas'uliyatini oshirishning pedagogik mexanizmlarini kompleks o'rganish masalasi yetarli darajada tadqiq etilmagan. Shu sababli mazkur yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Oliy ta'lim muassasalarida raqamli menejment tizimlarini joriy etish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish tadqiqotning asosiy metodologik yo'nalishlarini tashkil qiladi. Tadqiqotda muammolar moddiy-texnik, kadrlar salohiyati, tashkiliy-boshqaruv va axborot xavfsizligi bo'yicha

guruhlangan. Moddiy-texnik baza yetishmasligi zamonaviy serverlar, kuchli kompyuter texnikasi va barqaror internet tarmog'ining mavjud emasligi bilan ifodalanib, raqamli tizimlarning uzluksiz ishlashiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Kadrlar salohiyati nuqtayi nazaridan IT mutaxassislari, rahbar xodimlar va professor-o'qituvchilarning raqamli savodxonlik darajasini tahlil qilish orqali ularning yangi texnologiyalarga moslashishdagi qiyinchiliklari aniqlanadi. Tashkiliy va boshqaruv muammolari esa aniq strategiya va yo'l xaritasining mavjud emasligi hamda bo'limlararo ma'lumot almashinuvi mexanizmlarining to'liq ishlab chiqilmaganligi bilan bog'liq. Axborot xavfsizligi masalalari talabalar va xodimlarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish, tizimga bo'lgan ishonch va xavfsizlik choralarining yetarliligi bilan aniqlanadi.

Ushbu muammolarni hal etish uchun tizimli choralarni amalga oshirish zarur.

Avvalo, oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash lozim: zamonaviy server infrazuzilmasini yaratish, tezkor va barqaror internet bilan ta'minlash hamda litsenziyalangan dasturiy ta'minotlardan foydalanish raqamli menejment tizimlarining samarali ishlashini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega; rahbar xodimlar, professor-o'qituvchilar va texnik xodimlar uchun maxsus treninglar, seminarlar va malaka oshirish kurslarini tashkil etish orqali ularning raqamli kompetensiyalari oshiriladi [5].

Uchinchidan, raqamli menejment tizimlarini bosqichma-bosqich joriy etish maqsadga muvofiqdir; dastlab ayrim bo'limlarda pilot loyihalarni amalga oshirib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etgan holda tizimni kengaytirish ijobiy natijalar beradi.

To'rtinchidan, axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha aniq me'yoriy hujjatlar va ichki reglamentlar ishlab chiqilishi zarur; ma'lumotlarni zaxiralash, kirish huquqlarini cheklash va zamonaviy himoya vositalaridan foydalanish orqali tizim xavfsizligini oshirish mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oliy ta'lim muassasalarida raqamli menejment tizimlarini joriy etish jarayonini yanada takomillashtirishda oliy ta'lim muassasalari o'rtasida tajriba almashish va milliy hamda xalqaro ilg'or tajribalarni o'rganish muhim ahamiyatga ega. Bunday yondashuv nafaqat tizimlarning samaradorligini oshirish, balki rahbar xodimlar va professor-o'qituvchilarni zamonaviy boshqaruv texnologiyalari bilan tanishtirish, ularning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, normativ-huquqiy bazaning yetarli darajada shakllanmaganligi raqamli menejment tizimlarini joriy etishda dolzarb muammo sifatida namoyon bo'ladi. Amaldagi ayrim me'yoriy hujjatlar an'anaviy boshqaruv tizimlariga moslashtirilgan bo'lib, raqamli boshqaruv jarayonlarini to'liq qamrab olmaydi. Natijada hujjat aylanishida ikkilik holat yuzaga keladi va bir vaqtda ham elektron, ham qog'oz shakldagi hujjatlardan foydalanish majburiyati paydo bo'ladi.

Bundan tashqari, raqamli imzo, elektron hujjatlarning yuridik kuchi, ularni saqlash va arxivlash masalalarida aniqlik yetishmasligi tizimdan samarali foydalanishga to'sqinlik qiladi. Bu holat rahbar xodimlar va boshqaruv organlarining raqamli menejment tizimlariga to'liq ishonch bildirmasligi va an'anaviy boshqaruv usullariga murojaat qilishni davom ettirishiga olib keladi. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida raqamli menejment tizimlarini samarali joriy etish uchun normativ-huquqiy bazani yangilash, elektron hujjat aylanishi va raqamli imzo mexanizmlarini yuridik jihatdan mustahkamlash, shuningdek, milliy va xalqaro ilg'or tajribalarni tizimli o'rganish zarur. Bu choralar rahbar xodimlarning tizimga bo'lgan ishonchini oshirish va raqamli boshqaruv jarayonlarini to'liq integratsiya qilish imkonini beradi.

Oliy ta'lim muassasalarida raqamli menejment tizimlarini joriy etish jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish tadqiqot metodologiyasining markaziy yo'nalishlarini tashkil qiladi. Tadqiqotda muammolar moddiy-texnik, kadrlar salohiyati, tashkiliy-boshqaruv, normativ-huquqiy va axborot xavfsizligi sohalar bo'yicha tahlil qilindi. Moddiy-texnik baza yetishmasligi zamonaviy serverlar, kuchli kompyuter texnikasi va barqaror internet tarmog'ining mavjud emasligi bilan ifodalanib, raqamli tizimlarning uzluksiz ishlashiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Kadrlar salohiyati nuqtayi nazaridan IT mutaxassislari, rahbar xodimlar va professor-o'qituvchilarning raqamli savodxonlik darajasini tahlil qilish orqali ularning yangi texnologiyalarga moslashishdagi qiyinchiliklari aniqlanadi. Tashkiliy va boshqaruv muammolari esa aniq strategiya va yo'l xaritasining mavjud emasligi hamda bo'limlararo ma'lumot almashinuvi mexanizmlarining to'liq ishlab chiqilmaganligi bilan bog'liq [6]. Axborot xavfsizligi masalalari talabalar va xodimlarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish, tizimga bo'lgan ishonch va xavfsizlik choralarining yetarliligi bilan aniqlanadi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun tizimli choralar zarur.

Avvalo, oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash lozim: zamonaviy server infrazuzilmasini yaratish, tezkor va barqaror internet bilan ta'minlash hamda litsenziyalangan dasturiy ta'minotlardan foydalanish raqamli menejment tizimlarining samarali ishlashini ta'minlaydi.



Ikkinchidan, rahbar xodimlar, professor-o'qituvchilar va texnik xodimlar uchun maxsus treninglar, seminarlar va malaka oshirish kurslarini tashkil etish orqali kadrlarning raqamli kompetensiyalari oshiriladi.

Uchinchidan, tizimlarni bosqichma-bosqich joriy etish maqsadga muvofiq; dastlab pilot loyihalarni amalga oshirib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etgan holda tizimni kengaytirish ijobiy natijalar beradi.

To'rtinchidan, axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha aniq me'yoriy hujjatlar va ichki reglamentlar ishlab chiqilishi, ma'lumotlarni zaxiralash, kirish huquqlarini cheklash va zamonaviy himoya vositalaridan foydalanish tizim xavfsizligini oshirishga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim tizimiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni raqamlashtirish talablariga mos ravishda takomillashtirish, elektron hujjat aylanishi bo'yicha yagona standartlarni joriy etish boshqaruv jarayonlarini soddalashtiradi va tizim samaradorligini oshiradi. Raqamli menejment tizimlarini joriy etishda mavjud axborot tizimlari bilan integratsiya masalasi ham dolzarb hisoblanadi; o'quv jarayoni, buxgalteriya, kadrlar bo'limi va talabalar bilan ishlash bo'yicha alohida-alohida dasturiy vositalar mavjudligi ularning o'zaro bog'liqligini cheklaydi, natijada ma'lumotlarning takroran kiritilishiga olib keladi va xatolar yuzaga keladi. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun yagona platformaga asoslangan raqamli menejment tizimlarini ishlab chiqish yoki mavjud tizimlarni API texnologiyalari orqali integratsiyalash zarur bo'lib, bu axborot oqimlarini optimallashtirish va boshqaruv jarayonlarining uzviyligini ta'minlaydi.

XULOSA

Raqamli menejment tizimlarining joriy etilishi pedagogik jarayonga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi: o'quv yuklamlarini rejalashtirish, dars jadvalini shakllantirish va talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini monitoring qilish jarayonlari avtomatlashtiriladi. Bu esa professor-o'qituvchilarning ish yukini kamaytirib, ularning ilmiy va metodik faoliyatga ko'proq e'tibor qaratishiga imkon yaratadi.

Shu bilan birga, tizim interfeysining murakkabligi yoki texnik nosozliklar pedagogik jarayonda qo'shimcha stress omiliga aylanishi mumkin. Shu sababli raqamli menejment tizimlarini loyihalashda foydalanuvchi ehtiyojlarini hisobga olish, qulay va tushunarli interfeysni ta'minlash, shuningdek, texnik qo'llab-quvvatlash xizmati-ning uzluksiz faoliyatini tashkil etish pedagogik jarayonning barqarorligini saqlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абанкина И. В., Филатова Л. М. Тифровые платформы в системе управления университетом // Университетское управление: практика и анализ. – Екатеринбург, 2021. – № 2. – С. 34–41.
2. Abduqodirov A. A., Begimqulov U. Sh. Oliy ta'lim tizimida raqamli boshqaruv va axborot texnologiyalarini joriy etish masalalari // Ta'lim va innovatsiyalar. – Toshkent, 2021. – № 3. – B. 15–21.
3. Eshonjonov B. Z. Aksiologik yondashuvlarni shakllantirish ijtimoiy zarurat sifatida // Kasb-hunar ta'limi. Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma'rifiy jurnal. – T., 2024. – 12-son. – B. 90–94.
4. Кузминов Я. И., Фрумин И. Д. Цифровая трансформация высшего образования: управленческие подходы // Вопросы образования. – Москва, 2020. – № 4. – С. 8–28.
5. Selwyn N. Digital Education in Universities: Management, Policy and Practice. – London: Routledge, 2022. – 214 p.
6. Xodjayev B. X., Rahimov D. A. Oliy ta'lim muassasalarida raqamli transformatsiya jarayonlarini boshqarish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022. – 168 b.
7. Eshonjonov B. Z. Raqamli didaktikaning ta'lim jarayoniga transformatsiyasida konnektivizm nazariyasining o'rni va ahamiyati // "Zamonaviy jamiyatda yoshlarni destruktiv ta'sirlardan himoyalashning pedagogik-psixologik muammolari va yechimlari" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Termiz, 2025. – B. 533.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.